

# Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024 yil 23-oktabr, № 216 (8839) Chorshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


## XORIJIY INVESTITSIYALAR, ISTIQBOLLI LOYIHALAR VA USTUVOR VAZIFALAR MUHOKAMASI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev 22-oktabr kuni mahalliylashtirish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalalari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi.**

Iqtisodiyotni harakatlantiruvchi bu yo‘nalishlarda katta ishlar amalga oshirilmoqda. So‘nggi yetti yilda mamlakatimizga 78 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiyalar kelgan. Davlat-xususiy sheriklik bo‘yicha qonun qabul qilinib, mingdan ziyod loyihalar boshlangan. 1 ming 800 turdagi yangi mahsulotni o‘zimizda ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan.

Shu bilan birga, hali salohiyat katta. Yig‘ilishda mazkur yo‘nalishlarning har biri tahlil qilinib, qo‘shimcha imkoniyatlar ko‘rsatib o‘tildi.

Bugungi kunda barcha tarmoqlarda 140 milliard dollarlik 366 ta yirik loyiha amalga oshirilyapti. Investitsiya loyihalari doirasida yiliga 15 milliard dollarlik uskuna, xomashyo va qurilish materiallari olib kelinyapti. Shularning har birida mahalliy ulushni ko‘paytirish mumkinligi ta’kidlandi.

Yurtimizdagi yirik tarmoqlarda ham shunday imkoniyatlar bor. Masalan, energetika tarmog‘ini 2030-yilgacha rivojlantirish dasturiga muvofiq 36 milliard dollarlik 164 ta quvvat yaratiladi. Shundan 88 tasi davlat-xususiy sheriklik asosida barpo etiladi.

Tog‘-kon sanoati bo‘yicha ham 1 milliard 230 million dollarlik dastur qabul qilingan. Sohadagi yirik kombinatlarga mahalliy korxonalar o‘zaro manfaatli bog‘langan.

Avtosanoatda ham ushbu yo‘nalishda ishga solinmagan imkoniyatlar ko‘p. Birgina qo‘shni davlatlarda avtomobil ehtiyot qismlariga yillik talab 1 milliard dollarni tashkil qiladi.

Mahalliylashtirish jarayonida narx bo‘yicha ham, sifat bo‘yicha ham raqobatdosh mahsulot chiqarib, eksportni ko‘paytirishga alohida e’tibor qaratish zarurligi ta’kidlandi.

Ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha aniq loyihalar shakllantirib, imkoniyatlarni natijaga aylantirish zarurligi ta’kidlandi. Sanoat tarmoqlari bilan hududlar o‘rtasida kooperatsiyani rivojlantirish, davlat xaridlarida mahalliy mahsulot va xizmatlar ulushini oshirish bo‘yicha takliflar bildirildi.

Yaqinda davlat-xususiy sheriklik tamoyili asosida 30 milliard dollarlik investitsiya loyihalari tasdiqlandi. Bunda har bir sohaning imkoniyatlari ochib berilgan. Jumladan, transport bo‘yicha 10 milliard dollar, ijtimoiy sohalarda 6 milliard dollar, kommunal tarmoqda 5 milliard dollarlik rejalar ko‘zda tutilgan.

Bu loyihalarga investorlarni jalb qilish, mablag‘larni samarali yo‘naltirish vazifalari qayd etildi.

Yig‘ilishda xorijiy investitsiyalar oqimi va kelgusi rejalar ham ko‘rib chiqildi.

Joriy yilning to‘qqiz oyida 23 milliard 660 million dollar xorijiy sarmoya kirib kelgan. Shuningdek, 4 milliard 600 million dollarlik 120 ta yirik quvvat ishga tushgan.

Yil yakunigacha bu sur’at davom etadi. Shu tariqa 2017—2024-yillarda jalb etilgan xorijiy investitsiyalarning umumiy qiymati 100 milliard dollardan oshishi kutilmoqda.

Yig‘ilishda mutasaddilar belgilangan vazifalarni bajarish rejalari yuzasidan axborot berdi.

**O‘zA.**

## O‘ZBEKISTON PREZIDENTI BRIKS MAMLAKATLARI SAMMITIDA ISHTIROK ETADI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning taklifiga binoan 23-24-oktabr kunlari BRIKS birlashmasi davlatlarining sammitida ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan Qozon shahrida bo‘ladi.**

Davlatimiz rahbari Rossiya tomoni raisligida o‘tkaziladigan “BRIKS plyus” formatidagi yalpi sessiyada nutq so‘zlaydi.

Uchrashuv kun tartibidan inklyuziv va barqaror taraqqiyotni ta’minlash maqsadida xalqaro hamkorlikni kengaytirish masalalari o‘rin olgan. Shuningdek, global siyosatning dolzarb jihatlari muhokama qilinadi.

Bundan tashqari, tashrif dasturida ikki tomonlama qator uchrashuvlar o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan.

BRIKS birlashmasi 2006-yilda tashkil etilgan. Hozirda Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy, Janubiy Afrika Respublikasi, Birlashgan Arab Amirliklari, Eron, Misr va Efiopiya uning a’zolaridir.

**O‘zA.**

Biz va jahon

O‘zbekiston — BRIKS:

## YANGI ISHLAB CHIQARISH VA SAVDO-LOGISTIKA ZANJIRLARINI YARATISHGA QARATILGAN HAMKORLIK

*O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 23-24-oktabr kunlari Rossiya raisligida Qozon shahrida bo‘lib o‘tadigan BRIKS sammiti doirasidagi tadbirlarda ishtirok etadi.*

Ushbu tuzilma 2006-yil iyun oyida Sankt-Peterburg iqtisodiy forumi doirasida Braziliya, Rossiya, Hindiston va Xitoy iqtisodiyot vazirlari ishtirokida tashkil qilingan. Tashkilotni tuzish Rossiya tomoni tashabbusi bilan boshlangan.

Rossiya, Braziliya, Xitoy tashqi ishlar vazirlari va Hindiston mudofaa vaziri ishtirokidagi o‘sha paytdagi BRIKSning birinchi yig‘ilishi 2006-yil 20-sentabrda Nyu-York shahrida BMT Bosh Assambleyasining 61-sessiyasi doirasida bo‘lib o‘tgan edi.

2

## SAYLOV — 2024

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar bo‘yicha saylov kampaniyasi doirasida siyosiy partiyalarning saylovoldi tashviqoti davom etmoqda. Bugungi sonda O‘zbekiston Ekologik partiyasi nomidan “Bizning nomzodlarimiz mamlakatimiz barcha hududida barqaror rivojlanishga erishishni maqsad qilgan” hamda O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi nomidan “Xalq demokratik partiyasi g‘oya va tashabbuslari faol qo‘llab-quvvatlanmoqda” sarlavhali materiallar e’lon qilinmoqda.**

3-sahifaga qarang.

Tahlil

## SAYLOV HUQUQI VA MAS’ULIYAT

*So‘nggi yillarda mamlakatimizda zamonaviy saylov tizimi yaratildi. Saylovlarning umume’tirof etilgan xalqaro tamoyillariga mos bo‘lgan,fuqarolar xohish-irodasini erkin bildirishi kafolatlarini,har bir insonning davlat hokimiyati vakillik organlariga erkin saylash va saylanish huquqini ta’minlaydigan qonunchilik rivojlanib bormoqda.*

Ta’kidlash kerakki, bu galgi saylovlar mutlaqo o‘zgacha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitda bo‘lib o‘tmoqda va yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga asosan saylangan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengash deputatlari kengaytirilgan vakolatlar asosida ish boshlaydi. Bu bilan saylovlar orqali kuchli va professional parlamentni shakllantirish maqsad qilingan. Shu bois saylovlarni demokratik prinsiplar asosida tashkil etish uchun qonunchilik talablariga qat’iy rioya qilinishini ta’minlash muhim hisoblanadi.

Ammo huquqni qo‘llash amaliyoti tahlili shuni ko‘rsatadiki, saylovlarni o‘tkazish jarayonida ayrim qonunbuzilish holatlari uchramoqda. Xususan, 2023-yilda saylov qonunchiligini buzish bilan bog‘liq 23 ta, joriy yilning o‘tgan davrida 9 ta holat ma’muriy sudlarda ko‘rib chiqilgan. Bu esa mazkur masalani chuqur tahlil etishni taqozo qiladi.

### Saylov komissiyalari faoliyatiga aralashish, qarorlarini bajarmaslik qonunchilikka zid

Markaziy saylov komissiyasi va uning tizimlari saylovlarni tashkil etish va o‘tkazishda asosiy o‘rinni egallaydi. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasiga muvofiq MSK saylov tizimiga bevosita rahbarlikni amalga oshirib, demokratik tamoyillar asosida saylovchilar huquqlarini himoya qilishni ta’minlaydi.

Saylov kodeksiga muvofiq saylov komissiyalari va ularning a’zolari o‘z faoliyatini har qanday davlat organlaridan, jamoat birlashmalaridan va mansabdor shaxslardan mustaqil holda amalga oshiradi. Saylov komissiyalari faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi. Shuning uchun mansabdor shaxsning MSK, saylov komissiyalari faoliyatiga aralashishi, ular ishiga to‘siqlarni yuzaga keltirish bilan bog‘liq noqonuniy harakatlari *MJtKning 51[2]-moddasiga asosan javobgarlikka sabab bo‘ladi.*

4

Senat qo‘mitasida

## Budjet subsidiyalari jami daromad tarkibiga kiritilmaydi

*Oliy Majlis Senatining Budjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo‘mitasi majlisi bo‘lib o‘tdi. Unda parlament yuqori palatasining galdagi yalpi majlisiga kiritilayotgan ikkita qonun dastlabki tarzda muhokama qilindi.*

Dastlab “O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida”gi qonun muhokama markazida bo‘ldi. U bilan Soliq kodeksiga qo‘shimcha manbalardan daromad oluvchi budjet tashkilotlari uchun belgilangan soliq stavkalarining amal qilishini 2027-yilning 1-yanvarigacha uzaytirish, shuningdek, jami daromadning chegaraviy miqdorini 5 mlrd. so‘mdan 10 mlrd. so‘mga oshirish, ushbu daromad mavjud bo‘lganda soliq to‘lovchilar har oylik bo‘nak to‘lovlarini to‘liq chorak o‘tganidan keyin to‘lashini nazarda tutuvchi o‘zgartirishlar kiritilmoqda.

Qolaversa, ushbu qonun bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan beriladigan budjet subsidiyalari jami daromad tarkibiga kiritilmasligini nazarda tutuvchi o‘zgartirishlar kiritilayotganini ta’kidlash zarur.

O‘z mablag‘lari hisobidan nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining binolarini qurish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarga nisbatan foyda solig‘i bo‘yicha vaqtinchalik soliq imtiyozlari berilayotgani ham e’tiborga molik.

Shuningdek, Prezidentning qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha protez moslamalari, ularning butlovchi va ehtiyot qismlarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish hamda mamlakatimiz rezidentlari bo‘lgan vagon (konteyner) lar operatorlarining temir yo‘l transportida tashish jarayonida vagonlarni ijara shartlari asosida foydalanishga berish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish aylanmasi qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashdan vaqtinchalik ozod qilinishi ko‘zda tutilmoqda.

Qo‘mita yig‘ilishida “Davlat boji to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi qonun ham ko‘rib chiqildi.

Bu qonunga muvofiq “Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonunga tegishli qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilayotir.

Aniq aytadigan bo‘lsak, chet el tijorat tashkilotlarining vakolatxonalarini O‘zbekiston Respublikasi hududida akkreditatsiya qilishda davlat bojini to‘lash har bir yil uchun amalga oshirilishini aniqlashtiruvchi o‘zgartirish nazarda tutilmoqda.

Qayd etilganidek, mazkur qonunlar ta’lim tizimini takomillashtirish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratishga, aholiga ko‘rsatilayotgan transport xizmatlari sifatini oshirishga hamda soliq to‘lovchilar uchun soliq yukini kamaytirishga va iste’molchilar tomonidan qarzlarning o‘z vaqtida to‘lanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Muhokama yakunida ko‘rilgan masalalar bo‘yicha Senat qo‘mitasining tegishli qarori qabul qilindi.

**“Xalq so‘zi”.**

### O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ellik to‘qqizinchi yalpi majlisi ochilishi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ellik to‘qqizinchi yalpi majlisi 2024-yil 23-oktabr kuni soat 10:00 da Toshkent shahrida Oliy Majlis Senatining majlislar zalida o‘z ishini boshlaydi.

Yalpi majlis Senatning “YouTube” tarmog‘idagi sahifasi orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoritib boriladi.

## QONUN KUCHINI AMALDA NAMOYON ETADIGAN ENG SAMARALI TIZIM

*Yurt tinchligi — mamlakat barqaror taraqqiyotining muhim sharti. Har bir inson uchun Vatan osoyishtaligi,oilalar xotirjamligi bebaho ne’mat,ulug‘ saodat.*

*Shu ma’noda,keyingi yillarda ichki ishlar organlarini chinakam xalqchil tuzilmaga aylantirish,el-yurt tinchligi va osoyishtaligini ta’minlash,fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga ustuvor ahamiyat qaratilib,aholi uchun barcha shahar va qishloqlarda xavfsiz yashash va mehnat sharoitini yaratish maqsadida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilyapti. Eng quyi bo‘g‘indagi holat hamda muammolarni chuqur o‘rganib,mahallalarni jinoyatdan xoli hududga aylantirish pirovard maqsadimizga aylangan.*

Aytish joizki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev davlat rahbari sifatidagi faoliyatining ilk kunlaridanoq “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”, degan ezgu g‘oyani ilgari surgan edi. Mamlakatimiz ichki ishlar organlari tizimidagi tub islohotlar aynan ana shu xalqparvar g‘oyaga hamohang, desak, mubolag‘a emas.

Islohotlarning birinchi bosqichida ichki ishlar organlarining tuzilmasi maqbullashtirilib, barcha bo‘g‘in rahbarlarining xalq deputatlari Kengashlari va Oliy Majlis Senati oldida hisobdorligi belgilandi. Shaxsiy tarkibning 85 foizi quyi bo‘g‘inga tushirilib, aholiga yaqindan xizmat qiladigan bo‘ldi. Rahbarlarning xalq ichiga kirib, aholi bilan bevosita muloqotga kirishishi yo‘lga qo‘yildi.

Ayniqsa, joylarda ichki ishlar idoralari boshliqlari 3-sektorga rahbar etib belgilanib, tegishli sektorda mavjud muammolarni hal qilish asnosida aholining dardu tashvishini yaqindan bilib olyapti. Shu asnoda ular tomonidan ishsizlarning bandligini ta’minlash, kam daromadli oilalarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash orqali huquqbuzarliklarning oldi olinmoqda.

Islohotlarning ikkinchi bosqichida esa ichki ishlar organlarining xizmat faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari belgilandi. Jinoyatchilikka qarshi kurashish, ijtimoiy xavfli jinoyatlarni fosh etish va ularning oldini olish borasidagi yondashuv tubdan o‘zgartirildi.

Xususan, ichki ishlar organlarida kriminogen vaziyatni tahlil etish va jinoyatchilik dinamikasini prognoz qilishning mutlaqo yangi mexanizmi yaratildi. Vazirlik tizimida yo‘lga qo‘yilgan Kriminologiya tadqiqot instituti bugungi kunda aynan jinoyatlar sodir etilishining yangi uslublarini va kriminogen vaziyatni ilmiy tahlil qilish bilan shug‘ullanmoqda.

2

## DAVLAT TILI BARCHA FUQAROLARNI YAGONA OILA SIFATIDA BIRLASHTIRADI



Shukuh

*21-oktabr — O‘zbek tili bayrami kuni mamlakatimizda ko‘tarinki ruhda nishonlandi. Prezidentimizning sana munosabati bilan xalqimizga yo‘llagan tabrigi bayram shukuhini yanada oshirdi.*

*“Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” degan ezgu g‘oya asosida dadil ildamlayotgan yangi O‘zbekistonda davlat tilini yanada rivojlantirish, uning sofligini saqlash, jahonda targ‘ibotini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu nafaqat xalqimizni mamnun etyapti, balki xorijliklarning ham e’tirofiga sazovor bo‘lmoqda.*

4- sahifaga qarang.

## INSON QADRI VA AHOLI MANFAATLARINI TA’MINLASH — FAOLIYATIMIZNING BOSH MEZONI

*Xalqimiz uchun farovon turmush sharoitini yaratish,aholi bandligi va real daromadlarini muttasil oshirish,ijtimoiy muammolarni adolatli hal etish,tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash orqali kambag‘allikni qisqartirish mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning bosh mezoni sanaladi. Shu bois o‘tgan davrda insonni e’zozlash,uning huquq va erkinliklarini ta’minlash,fuqarolarni davlat hisobidan kasb-hunarga o‘qitish, nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan sa’y-harakatlar tizimli davom ettirilayotir.*

Fikr

Binobarin, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida kambag‘allikka tushish xavfi mavjud 4,5 million aholi daromadini oshirish, mehnatga layoqatli aholi, jumladan, yoshlar va nogironligi bo‘lgan shaxslarning barqaror va samarali bandligini ta’minlash, buning natijasida ishsizlik darajasini 7 foizgacha tushirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda esa mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta’minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanishi, har kim qariganda, mehnat qobiliyatini yo‘qotganda, ishsizlikda, shuningdek, boquvchisini yo‘qotganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta’minot huquqiga ega ekani, qonunda belgilangan pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordamning miqdorlari rasman belgilangan eng kam iste’mol xarajatlaridan oz bo‘lishi mumkin emasligi mustahkamlab qo‘yildi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan islohotlar, ushbu yo‘nalishga ajratilayotgan mablag‘lar qamrovi oshgani, sohaning huquqiy asoslari takomillashtirib borilayotgani natijasida yurtimizda kambag‘allik darajasi 2019-yildagi 23 foizdan 2023-yilda 11 foizga qisqardi. Bu odamlar turmushidagi o‘zgarishlar, ularning yuz-ko‘zidagi mamnunlik, bugungi yashayotgan kunidan rozilik ifodasi o‘laroq hayotimizda o‘z aksini topmoqda.

Ta’kidlash joizki, Qonunchilik palatasining Mehnat va ijtimoiy masalalar qo‘mitasi o‘tgan besh yillik faoliyati davrida mazkur yo‘nalishda samarali ish olib bordi. Ijtimoiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, jumladan, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, bandligiga ko‘maklashish va mehnat munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solishga alohida e’tibor qaratdi. Jumladan, qonun ijodkorligi yo‘nalishida 30 ta qonun loyihasi uchun mas’ul bo‘ldi va ulardan 25 tasi qabul qilindi.

2

O‘zbekiston — BRIKS:

# YANGI ISHLAB CHIQARISH VA SAVDO-LOGISTIKA ZANJIRLARINI YARATISHGA QARATILGAN HAMKORLIK

1 2010-yil 12-noyabrda Seulda bo‘lib o‘tgan “G20” sammitida Janubiy Afrika Respublikasi BRIKSga qo‘shilish istagini bildirdi. Janubiy Afrikaning qo‘shilishi bilan tuzilma nomi BRIKS sifatida qayta tashkil etildi.

2023-yil avgustda bo‘lib o‘tgan sammitda Eron, Saudiya Arabistoni, Misr, Argentina, Efiopiya va BAA tashkilotga to‘laqonli a’zo sifatida qo‘shilish uchun taklif qilingan edi. 2024-yil yanvarda ushbu davlatlardan to‘rttasi — Misr, Eron, BAA va Efiopiya tashkilotga rasman qo‘shildi.

Birlashmaga a’zo bo‘lgan davlatlar nufuzli xalqaro tuzilmalar — BMT, “G20”, Jahon savdo tashkiloti, Qo‘shilmaslik harakati, “G77” guruhi, shuningdek, qator yirik mintaqaviy tuzilmalarning nufuzli ishtirokchilari hisoblanadi.

BRIKS hamkorlari o‘rtasidagi munosabatlar BMT Nizomi, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan tamoyillari va normalari, shuningdek, tenglik, ochiqlik, pragmatizm, birdamlik, qo‘shilmaslik va uchinchi tomonlarga betaraflik tamoyillari asosida qurilgan.

Birlashma mexanizmi, ta’kidlanganidek, tinchlik, xavfsizlik, taraqqiyot va hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan. BRIKSning asosiy maqsadi ishtirokchi davlatlarning iqtisodiy va texnologik salohiyatini sezilarli darajada mustahkamlash yo‘lida samarali aloqalar uchun sharoit yaratishdir.

BRIKS doirasida Ishbilarmonlar kengashi va BRIKS Taraqqiyot banki faoliyat yuritadi. Iqtisodiy yo‘lda tuzilma mamlakatlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik 2025-yilgacha bo‘lgan Iqtisodiy sheriklik strategiyasiga asoslanadi. U a’zo mamlakatlarning ikki tomonlama iqtisodiy aloqalarini ularning ko‘p tomonlama formatdagi o‘zaro ta’siri bilan to‘ldirishni, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, birlashmalar va forumlarda, birinchi navbatda, Jahon savdo tashkilotida muvofiqlashtirishni ta’minlashni nazarda tutadi.

BRIKS mamlakatlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar formatlari tizimi oliy darajadagi yillik rejalashtirilgan uchrashuvlarni o‘z ichiga oladi. BRIKSga raislik taqvimi yil davomida ishtirokchi davlatlar tomonidan rotatsiya asosida amalga oshiriladi. Barcha qarorlar konsensus asosida qabul qilinadi.

O‘zbekiston uchun BRIKS inklyuziv hamkorlik va barqaror rivojlanish kun tartibini ilgari surish uchun izlanayotgan platforma hisoblanadi.

2015-yilning 9-iyul kuni O‘zbekiston Rossiya tomoni raisligida Ufa shahrida bo‘lib o‘tgan SHHT va BRIKSga a’zo mamlakatlar davlat rahbarlarining uchrashuvida ishtirok etdi. Yig‘ilishda tashkilotga a’zo 9 davlat rahbarlari qatnashgan.

O‘zbekiston Prezidenti 2022-yil 24-iyun kuni “BRIKS plyus” formatidagi Global taraqqiyot masalalari bo‘yicha yuqori darajadagi muloqotda ishtirok etdi. Xitoy tomoni raisligida o‘tgan ushbu onlayn-forumda dunyoning 18 mamlakatidan davlat va hukumat rahbarlari qatnashdi.

Rossiyaning BRIKSga joriy raisligi doirasida O‘zbekiston Yoshlar sammiti, BRIKS sport o‘yinlari, IX yuridik forumi, X parlament forumi, turdosh shaharlar va munitsipalitetlar forumi, shuningdek, BRIKS va “BRIKS plyus” mamlakatlarida xavfsizlik masalalarini nazorat qiluvchi yuqori darajali shaxslar uchrashuvida ishtirok etdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 24-iyun kuni bo‘lib o‘tgan “BRIKS plyus” formatidagi Global taraqqiyot masalalari bo‘yicha yuqori darajadagi muloqotda so‘zlagan nutqida jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan inqirozli holatlarni yengib, o‘tish maqsadida savdodagi to‘siqlarni bartaraf etish, yangi ishlab chiqarish va savdo-logistika zanjirlarini yaratish, sanoat kooperatsiyasi bo‘yicha loyihalarga investitsiyalar jalb etish va infratuzilmani modernizatsiya qilish, texnologiyalar transferi va innovatsiyalarni joriy etish, sun’iy intellekt, raqamlashtirish, biotexnologiyalar, vaksinalar ishlab chiqarish sohasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish bo‘yicha muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlarni qabul qilish muhim ahamiyatga egaligini ta’kidladi.

Davlatimiz rahbari, shuningdek, qo‘shma loyiha va tashabbuslarni ilgari surish maqsadida “BRIKS plyus” ishbilarmon doiralari forumini yo‘lga qo‘yishni taklif qildi.

“Biz Barqaror rivojlanish maqsadlariga birgalikda erishish uchun keng ko‘lamli xalqaro sheriklikka, shu jumladan, “Janub — Janub” formatidagi hamkorlikka ochiqmiz va bu yo‘lga sodiqmiz”, dedi O‘zbekiston yetakchisi.

Demak, davlatimiz rahbarining bo‘lajak BRIKS sammitidagi ishtiroki xalqaro aloqalarni yanada kengaytirish va O‘zbekistonning jahon iqtisodiy aloqalariga integratsiyalashuviga, mamlakatimizning o‘zaro manfaatli hamkorlikka yo‘naltirilgan ishonchli sherik sifatidagi nufuzini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

**“Dunyo” AA.**

# QONUN KUCHINI AMALDA NAMOYON ETADIGAN ENG SAMARALI TIZIM

1 Davlatimiz rahbarining topshiriqlari asosida mahallalarda xavfsiz sharoitlar yaratilmoqda. Bunda har qaysi hududning o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olinyapti. Endilikda hokimlar va sektor rahbarlari tomonidan huquqbuzarliklar profilaktikasini kunlik tashkil etish odatiy holga aylandi. Asosiy e’tibor aholi orasida jinoyatchilikka nisbatan murosasiz munosabatni va yurt taqdiriga daxldorlik hissini shakllantirishga qaratilmoqda. Jinoyatlarning sabablari mahallabay va sohabay muhokama qilinayotgani jinoyatchilikni jilovlashda yaxshi samara bermoqda.

Mahalla hududini intellektual videokuzatuv tizimi orqali nazorat qilish hamda xavfsizlik bilan bog‘liq xabarlarni profilaktika inspektori planshetiga darhol yuborish bo‘yicha Xiva tumanidagi Istiqlol mahallasida tajriba yaratilgan edi. Ushbu tajriba ijobiy natija bergach butun mamlakatimiz bo‘ylab joriy etilmoqda.

Buxoro viloyati hududiy ichki ishlar organlarining 150 nafar profilaktika katta inspektori tomonidan uchuvchisiz uchish apparatlari (dronlar) dan foydalanish amaliyoti yo‘lga qo‘yilmoqda. Muhimi, dron yordamida o‘ziga biriktirilgan hududdagi vaziyatni nazorat qilishi uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Agar ushbu amaliyot yaxshi samara bersa, uni ham mamlakatimiz bo‘ylab tatbiq etish rejalashtirilgan.

Shuningdek, Namangan viloyatida yonma-yon joylashgan kriminogen vaziyati murakkab mahallalarni mikrohududlarga ajratgan holda ularda profilaktika bosh inspektori va profilaktika kichik inspektori lavozimlari kiritildi. Ushbu yangilik ham mahallalarda aholi osoyishtaligini ta’minlash va jamoat tartibini saqlashda o‘z samarasini beradi, deb umid qilamiz. Guliston shahridagi Bog‘ishamol va Taraqqiyot mahallalarida sinovdan o‘tgan ko‘p qavatli uylarning kirish-chiqish joylarini videonazorat qilish vositalari bilan jihozlash tajribasi endilikda boshqa joylarga ham tatbiq etilyapti.

Hozirda har bir mahallaga kamida bittadan profilaktika inspektori mas’ul. Kechayu kunduz aholining xavfsizlik bilan bog‘liq muammolarini hal etish imkoniyatiga ega bo‘lishi uchun ularga mahallalarning o‘zida 6 552 ta xizmat uyi berildi. Bundan tashqari, ushbu soha vakillariga avtomashina xarid qilishi uchun imtiyozli kreditlar ajratildi.

Yana bir yangilik. Mahallalarda “ijtimoiy profilaktika” tizimiga asos solindi. Unga ko‘ra mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish maqsadida profilaktika inspektori, mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli va yoshlar yetakchisi huquqbuzarlik sodir qilishi va huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimoli yuqori bo‘lgan shaxslarning muammolarini hal etish bo‘yicha manzilli ishlarni amalga oshirmoqda. Bu borada ularga ijtimoiy xodim, soliq inspektori, bandlik xodimi, inspektor-psixolog, tibbiyot xodimi va boshqa mutasaddilar yaqindan ko‘maklashyapti.

Jamoat xavfsizligini “inson omili”ni istisno etgan holda ta’minlash masalasi ham vazirlik rahbariyatining doim diqqat markazida. Ana shu maqsadda eng olis hududlarda ham jinoyatlar bo‘yicha xabarlarni qayd qilishning “102” avtomatlashtirilgan tizimi joriy etildi. Ma’muriy huquqbuzarliklar va yo‘l harakati qoidabuzarliklari bo‘yicha bayonnomalarni elektron tarzda rasmiylashtirish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

Ko‘chalarda xavfsizlik holatini kuzatish uchun viloyat markazlarida 13 ta Tezkor boshqaruv markazi hamda tuman-shaharlarda 130 ta Monitoring markazi tashkil etilib, ularga 19 mingdan ziyod videokameralar integratsiya qilindi.

Ma’lumki, axborot kommunikatsiyalari rivojlangani, ijtimoiy tarmoqlar ommalashgani sayin, aholi orasida kiberjinoyatlardan jabrlanayotganlar soni ham tobora ko‘paymoqda. Shu boisdan yurtdoshlarimizni ogohlikka chaqirish maqsadida viktimologik profilaktika tadbirlarini kuchaytirdik.

Ushbu tadbirlar jarayonida bank plastik kartalaridan qanday xavfsiz foydalanish kerakligi, kiberjinoyatchilardan ehtiyot bo‘lish choralari aholiga har tomonlama tushuntirilyapti.

Yana raqamlarga murojaat etadigan bo‘lsak, jamoat xavfsizligini ta’minlash, bu borada tezkorlikni oshirish uchun patrul-post xizmatida avtopatrullar soni ko‘paytirilib, ushbu soha shaxsiy tarkibining 37,8 foizi avtopatrul yo‘nalishlariga jalb qilindi. So‘nggi paytlarda turli ko‘ngilsizliklarga, hatto



odamlarning hayotdan ko‘z yumishiga olib kelayotgan avtoavariyalar yuz berayotgani ko‘pchilikni jiddiy tashvishga solayotgani achchiq haqiqat. Bunday holatlarning oldini olish uchun yo‘l-patrul xizmati xodimlari 4 629 ta bodikamera, 1 448 ta alkotester, huquqbuzarlikni qayd etuvchi 4 365 ta planshet hamda zamonaviy patrul avtomashinalari bilan ta’minlandi.

Umumta’lim maktablarida “Yo‘l harakati xavfsizligi” o‘quv sinfxonalari, mahallalar va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida esa yo‘l harakati qoidalarini targ‘ib qiluvchi bolalar maydonchalari tashkil etildi. Shu tariqa bolalarda yo‘llarda harakatlanish madaniyatini shakllantirishning yaxlit tizimi yaratildi.

Inson huquqlarini ta’minlash ham ustuvor vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Hozirda jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlar bilan faqat videokamera nazorati ostida muloqot qilinadi. Barcha tergov xonalariga videokameralar o‘rnatilgan. “Gezella oynasi” bilan jihozlangan va videokonferensaloqa tizimiga ulangan 57 ta maxsus tergov xonasi tashkil etilgan.

Bu ham tergov harakatlari xolisona olib borilishining garovidir. Ammo biz faqat nazorat vositalari bilangina cheklanmayapmiz. Avvalambor, shaxsiy tarkibni insonparvarlik, vatanparvarlik, burchga sadoqat, qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash choralarini ko‘ryapmiz. Bu borada Ma’naviyat va ma’rifat darslari, turli madaniy-ma’rifiy tadbirlar, yakka tartibdagi tarbiyaviy ishlar o‘z samarasini bermoqda.

Zamon talablaridan kelib chiqib jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash amaliyoti to‘liq raqamlashtirildi. Tizimda jami 262 ta fuqaroni qabul qilish xonalari tashkil etildi. Bugungi kunda ichki ishlar organlari xodimlari bilan bog‘liq holatlarda (1102), qiyin vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga (1259 va 1286), turistlarga (1173) va odam savdosidan jabrlangan fuqarolarga (301-01-01) huquqiy va tezkor psixologik yordam ko‘rsatish bo‘yicha qisqa raqamli “Ishonch telefoni” ishlab turibdi.

Yurtboshimiz rahnamoligida yurtimiz ijtimoiy-ciyociy hayotining bapcha cohasida ulkan tapixiy o‘zgapishlap amalga oshipilmoqda. Prezidentimizning tegishli Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish g‘oyasi alohida o‘rinni egallagan. Ana shu g‘oyadan kelib chiqib yangi O‘zbekistonning yangi ichki ishlar organlari yaratilmoqda. Ichki ishlar organlari xodimlari “Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish — oliy burchimiz” ekanligini yaxshi bilishadi. Ular ana shu ezgu maqsad yo‘lida bor kuch, bilim va salohiyatlarini ayamaydi.

Barchamiz yaxshi bilamizki, tinchlik-osoyishtalikni saqlash, qonun ustuvorligini ta’minlash — mamlakat taraqqiyoti, iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar samaradorligining asosiy shartlaridan biri. Prezidentimiz “Agar davlat tayanadigan asosiy ustun qonun bo‘lsa, uning kuchini amalda namoyon etadigan eng samarali tizim, bu — ichki ishlar sohasi, desak, ayni haqiqat bo‘ladi”, deya xodimlarimizga yuksak ishonch bildirdi. Vazirlik shaxsiy tarkibi bu ishonchdan ruhlanib, bundan buyon ham mamlakatimizda demokratik islohotlarni izchil davom ettirishga, xalqimizni rozi qilishga, tinchlik-barqarorlik va huquq-tartibotni mustahkamlashga munosib hissa qo‘shishi, shubhasiz.

**Po‘lat BOBOJONOV,**
**O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri,**
**general-leytenant.**


# INSON QADRI VA AHOLI MANFAATLARINI TA’MINLASH — FAOLIYATIMIZNING BOSH MEZONI



1 “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartishlar kiritish haqida”gi, “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga pensiya tayinlash tartibini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi, “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga mahkumlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonunlar shular jumlasidandir.

Birgina “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartishlar kiritish haqida”gi Qonun yurtimizda inson qadrini ulug‘lashga yo‘naltirilgan amaliy ishlarning yorqin ifodasi bo‘ldi. Zero, ushbu hujjatga asosan yoshga doir, nogironlik hamda boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalarini hisoblab chiqarish uchun qabul qilinadigan o‘rtacha oylik ish haqining eng ko‘p miqdori pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining o‘n barobaridan o‘n ikki barobarigacha oshirildi. Ayni vaqtda mazkur hujjat pensionerlarning moddiy farovonligini yanada oshirish va ijtimoiy adolat prinsiplarini mustahkamlashga xizmat qilayotir.

Alohida qayd etish joizki, qo‘mitamiz a’zolari tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida 4 ta qonun loyihasi ishlab chiqilib, quyi palata muhokamasiga kiritildi. Masalan, qo‘mitamiz mas’ulligida qabul qilingan “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi Qonun ushbu toifadagi shaxslarning huquqlari himoya qilinishini ta’minlashda muhim huquqiy asos bo‘ldi, deyish mumkin. Zero, mazkur hujjat bilan nogironligi bo‘lgan shaxslarning odil sudlovdan foydalanish, saylash va saylanish, referendumda ishtirok etish, shuningdek, ta’lim olishga bo‘lgan huquqlarini ta’minlash uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratilishi nazarda tutildi.




E’tiborli jihati, nogironligi bo‘lgan shaxslarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning to‘laqonli hayot kechirishlarini ta’minlash uchun mutlaqo yangi tizim yaratilib, u davlatning nogironligi bo‘lgan shaxslarga nisbatan munosabati, mas’uliyati yangi darajaga ko‘tarilayotganini yaqqol namoyon etdi.

Faoliyatimiz davomida aholi bandligini ta’minlash, tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish, vaqtinchalik ishlash uchun xorijga jo‘nab ketayotgan fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur huquqiy, ijtimoiy, axborot-maslahat yordami ko‘rsatishga oid ishlar ustidan ta’sirchan parlament nazoratini olib borishga ham mas’ullik bilan yondashildi. Shu davrda nazorat-tahlil faoliyatimiz doirasida 80 ga yaqin tadbirlar o‘tkazildi.

Shuningdek, qo‘mitamiz a’zolari tomonidan joylarga chiqqan holda “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi, “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi va “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi qonunlarning ijro etilishi holati nazorat-tahlil tartibida o‘rganildi. Aniqlangan kamchiliklar yuzasidan tegishli mutasaddilarning axboroti qo‘mita majlislarida eshitildi. Qolaversa, ushbu tadbirlar va o‘rganishlar yakunidan kelib chiqib, tashabbusimiz bilan davlat organlarining mansabdor shaxslariga 4 ta parlament so‘rovi yuborildi.

Qo‘mitamiz a’zolari tomonidan mansabdor shaxslarga saylovchilarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta’minlash bilan bog‘liq masalalar yuzasidan esa 169 ta deputat so‘rovi yuborildi.

Ayonki, deputat xalq vakili sanaladi. Shu bois o‘tgan davrda fuqarolar murojaatlari bilan ishlash, aholini o‘ylantirayotgan masalalarni o‘rganish va joylardagi mavjud muammolarni bartaraf etish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Ayniqsa, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o‘z vaqtida o‘rganish hamda ularni hal qilishga jiddiy yondashildi. Xususan, fuqarolardan kelib tushgan jami 2 759 ta murojaat belgilangan tartibda ko‘rib chiqildi va ulardan salmoqli qismi ijobiy hal etildi.

Shu bilan birga, qo‘mitamiz a’zolari tomonidan turli masalalar yuzasidan 3 132 nafar jismoniy va yuridik shaxs vakillarining qabuli tashkil etildi. Ular tomonidan ko‘tarilgan masalalarning aksariyati deputatlar sa’y-harakati bilan o‘z yechimini topdi. Qolganlari esa ko‘rib chiqish uchun tegishli davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlariga yuborildi.

Qo‘mitamiz a’zolari aholi bandligini ta’minlash, ish o‘rinlari yaratish hamda kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan davlatimiz siyosatini ro‘yobga chiqarishda faol va tashabbuskor bo‘lib, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishdi. Mas’ulligimizda qabul qilinayotgan qonunlarda, avvalo, fuqarolar bandligini ta’minlash, insonni qadrlash, odamlar hayotdan rozi bo‘lishiga katta e’tibor qaratilgani fikrimiz isbotidir. Zotan, bu sa’y-harakatlar, huquqiy islohotlar aholi farovonligi yanada ortishiga, turmush darajasi yaxshilanishiga xizmat qiladi.

**Mavluda XO‘JAYEVA,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Mehnat va ijtimoiy masalalar qo‘mitasi raisi.**

O‘zbekiston — Qozog‘iston:

# IKKI TOMONLAMA ALOQALAR KENGAYMOQDA

*Samarqandda O‘zbekiston — Qozog‘iston to‘rtinchi hududlararo forumi o‘tkazildi. Forum ishida O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A. Aripov hamda Qozog‘iston Respublikasi Bosh vaziri O. Bektenov, ikki davlat hukumati a’zolari, hududlar rahbarlari va tadbirkorlar ishtirok etdi.*

## Qardoshlik rishtalari

Bosh vazirlar davlatlarimiz rahbarlarining samimiy munosabatlari va oqilona tashqi siyosatlari tufayli keyingi yillarda mamlakatlarimiz o‘rtasidagi ko‘p asrlik do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va o‘zaro hurmat tamoyillariga asoslangan strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari jadal rivojlanib, barcha sohada ijobiy o‘sish kuzatilayotganini ta’kidladi.

Darhaqiqat, keyingi 7 yilda O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasida o‘zaro savdo aylanmasi deyarli 2,5 barobar o‘sib, o‘tgan yili 4,4 milliard dollarni tashkil etdi. Bugungi kunda mamlakatimizda Qozog‘iston kapitali ishtirokida 1100 ga yaqin, Qozog‘istonda esa O‘zbekiston kapitali ishtirokida 3600 dan ortiq korxonalar faoliyat yuritmoqda.

Zaxiralardan samarali foydalangan holda yaqin yillarda o‘zaro savdo hajmini 10 milliard dollarga yetkazish imkoniyati mavjud.

Forumda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning shu yil avgust oyida Qozog‘istonga amalga oshirgan davlat tashrifi doirasida umumiy qiymati 7 milliard dollarlik shartnoma va bitimlar imzolangani mamnuniyat bilan qayd etilib, bu hujjatlarning ijrosini ta’minlashda hukumatlar va mintaqalar rahbarlari o‘zaro hamkorlikda ish olib borishi zarurligi ta’kidlandi.

Tomonlar O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi uzoq muddatli sheriklikni kengaytirishda hududlararo aloqalar haqiqiy harakatlantiruvchi kuch bo‘lib xizmat qilayotganini e’tirof etdi. Jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mang‘istau viloyati bilan, Toshkent viloyati Turkiston viloyati bilan, Navoiy viloyati Qizilo‘rda viloyati bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri va yaqin aloqalar o‘rnatgan.

Toshkentlik tadbirkorlar Chimkent shahrida maishiy texnika va infuzion preparatlar ishlab chiqarishni boshladi. Samarqanddagi “Azia Metall” kompaniyasi esa Taraz shahrida po‘lat mahsulotini ishlab chiqarish zavodini qurmoqda. Ostonadagi “BI Group” xolding kompaniyasi Toshkent shahrida yirik qurilish loyihalarini amalga oshirayotgan bo‘lsa, “PTC Holding” kompaniyasi Toshkent viloyatida yirik logistika markazini barpo etmoqda.

Davlatlarimiz o‘rtasida madaniy-gumanitar sohadagi aloqalar ham yildan-yilga kengayib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Bu borada doimiy ravishda O‘zbekiston va Qozog‘istonda madaniyat kunlari, kino, teatr, ilmiy va ijodiy jamoalar, ziyolilar forumlari, o‘quv ko‘rgazmalari, muzey eksponatlari ekspozitsiyalari o‘tkazilmoqda.

Turizm sohasi davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri ekani qayd etilib, sayyohlik xizmatlarini ko‘rsatish va infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shma loyihalarni amalga oshirish zarurligi ta’kidlandi.

Bosh vazirlar O‘zbekiston va Qozog‘istonning viloyatlari hamda shaharlari o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirishga har tomonlama yordam berishga tayyorliklarini tasdiqladilar.

Forumda hududlararo aloqalarni yanada mustahkamlash va rivojlantirish yuzasidan muhim taklif hamda tashabbuslar bildirildi. Davlatlar rahbarlari ishtirokida o‘tkazilgan oliy darajadagi uchrashuvlarda erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. Bir qator vazirliklar va mintaqalar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish, loyihalarni birgalikda amalga oshirish bo‘yicha hujjatlar imzolandi.

Hududlararo forum doirasida O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri Laziz Qudratov hamda Qozog‘iston Respublikasi savdo va integratsiya vaziri Arman Shakkaliyev boshchiligida mintaqalar rahbarlari va 200 dan ortiq tadbirkorlar, yirik kompaniyalar vakillari ishtirokida O‘zbekiston va Qozog‘iston ishbilarmonlari uchrashuvi o‘tkazildi.

Uchrashuvda ikki davlat hududlari o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamkorlikni mustahkamlash, qo‘shma loyihalarni amalga oshirish va tayyor mahsulot yetkazib berish hajmini ko‘paytirish yuzasidan muzokaralar olib borildi va 30 dan ortiq shartnomalar imzolandi.

**Abdulaziz YO‘LDOSHEV**
**(“Xalq so‘zi”).**

# BIZNING NOMZODLARIMIZ MAMLAKATIMIZ BARCHA HUDUDIDA BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISHNI MAQSAD QILGAN

***Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, yerlarni va ichimlik suvi manbalarini asrash, mavjud ekologik muammolarga yechim topish umummilliy ahamiyatga molik masalalar sirasiga kiradi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston Ekologik partiyasi Saylovoldi dasturidan yurtimizdagi har bir hudud hamda har bir fuqaro uchun zarur va ahamiyatli bo‘lgan muhim masalalar o‘rin olgan.***

***Mamlakatimiz bo‘ylab o‘tkazilayotgan saylovoldi tadbirlarida Ekopartiya tomonidan ilgari surilayotgan qator tashabbus va takliflar saylovchilar tomonidan katta qiziqish bilan kutib olinmoqda.***

Saylovoldi uchrashuvlari savol-javoblarga boy tarzda, saylovchilarning faolligida o‘tayotgani, aholining O‘zbekiston Ekologik partiyasi Saylovoldi dasturi va partiyadan ko‘rsatilgan nomzodlarga befarq emasligidan darak beradi.

**Qoraqalpog‘iston Respublikasining** Ellikqal’a tumanida “Tabiat uchun birlashaylik!” shiori ostida o‘tkazilgan saylovoldi uchrashuvida so‘zga chiqqan partiya faollari tomonidan Saylovoldi dasturidagi **Orolbo‘yi mintaqasining** ekologik holatini yaxshilash, **aholiga qulay yashash sharoitini yaratish, Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish**ga qaratilgan taklif va tashabbuslar mohiyati atroflicha tushuntirildi.

Mamlakatning **iqlim “yuki” monitoringi**ni va **iqlim hisobini yuritish** mexanizmlarini joriy etish, iqlim o‘zgarishlariga chidamli yangi o‘simlik navlarini va chorva zotlarini yaratishni rag‘batlantirish, tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish, iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq **ekotizimdagi yo‘qotishlar va zararlarning o‘rnini qoplash uchun maxsus jamg‘arma** tashkil etish kabi tashabbuslar alohida qayd etildi.

**Aybek AMINOV,**
**2-Qoraqalpog‘iston Respublikasi saylov okrugidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod:**

— Orolbo‘yi hududida xalqaro moliya institutlarining bioxilmaxillikni saqlash, iqlim o‘zgarishini yumshatish, cho‘llanishning oldini olishga qaratilgan **loyiha va dasturlarini keng jalb etish** orqali ushbu hududdagi o‘simlik va hayvonot olamini muhofaza qilish va ko‘paytirish partiyamiz uchun ustuvor vazifa hisoblanadi. Orolbo‘yi mintaqasida joylashgan **Qizilqum cho‘li hududida sahroga mos o‘simliklar ekish** orqali qum bo‘ronlari ko‘tarilishining oldini olish va yaylovlar degradatsiyasini to‘xtatish mumkin.

Saylovchilar tomonidan ijobiy baholanayotgan — **ekologik ta’lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish** taklifi shunisi bilan ahamiyatliki, biz yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish orqali tabiiy resurslardan samarali foydalanish, atrof-muhitni himoya qilishga erisha olamiz.

**Andijon viloyati.** O‘zbekiston Ekologik partiyasidan Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatligiga ko‘rsatilgan nomzodlar bilan o‘tkazilgan uchrashuvda partiyaning Saylovoldi dasturida hamda nomzodlar dasturlarining **kelgusi besh yillikdagi ustuvor vazifalari** keng muhokama qilindi.

Unda O‘zbekiston Ekologik partiyasining Saylovoldi dasturidan respublikada **chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish tizimini** hamda **chiqindilarni qayta ishlash, ekologik xavfsiz tarzda utilizatsiya qilishni takomillashtirish**, ko‘rsatiladigan **xizmatlar sifatini oshirish**, sohaga tadbirkorlik subyektlarini faol jalb qilish imkoniyatlarini yanada kengaytirish tashabbuslari ham o‘rin olgani alohida qayd etildi.

**Navro‘zbek YUSUPOV,**
**9-Andijon viloyati saylov okrugidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod:**

— Saylovoldi dasturimizda sanoatda energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish orqali **energiya sarfini 50 foizga qisqartirish**, 2030-yilgacha energiya balansida ekologik toza va qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushini **ikki karra oshirish** kabi g‘oyalarimiz andijonlik yurtdoshlarimizning katta qiziqish va e’tiborini qozonmoqda. Chunki viloyat aholi zich joylashgan hudud bo‘lgani uchun bu masalalar juda muhim ahamiyatga ega.

Uchrashuv davomida saylovchilar tomonidan atrof-muhitning maishiy chiqindilar bilan ifloslanishiga chek qo‘yish yuzasidan takliflar bildirildi. Qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash, ikkilamchi resurs sifatida foydalanish bilan bog‘liq muayyan muammolar mavjud bo‘lib, bugun qattiq maishiy chiqindilarning bor yo‘g‘i **4-5 foizi** qayta ishlanmoqda.

Saylovoldi dasturimizda chiqindini xonadonlarning o‘zida saralab olib chiqishni rag‘batlantirish orqali aholi punktlarida **qayta ishlanadigan chiqindilarni avtomatlashtirilgan tartibda qabul qilib oladigan** qurilmalarni o‘rnatish, maishiy chiqindilarni qayta ishlash va ulardan biogaz, bioko‘mir ishlab chiqarish, polietilen, poliamid tarkibli qadoqlash mahsulotlari, **bir martalik** ishlatiladigan plastik idishlardan foydalanishdan bosqichma-bosqich voz kechish, barcha savdo maskanlarida plastik, bir martalik qoplar hamda shishalarni **qabul qilish punktlarini ochish** bo‘yicha aniq takliflar borligi saylovchilarga manzur bo‘ldi.

**Samarqand viloyati.** Qadimiy va hamisha navqiron Samarqand shahrida partiya Saylovoldi dasturidagi vazifalarni keng ommaga yetkazish va targ‘ib qilish yuzasidan **saylovoldi ommaviy tadbiri** o‘tkazildi. Mazkur tadbirlarda partiyadan Qonunchilik palatasi hamda mahalliy Kengashlarga ko‘rsatilgan nomzodlar, shuningdek, oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchi va talabalari, ekologiya sohasidagi tashkilotlar vakillari, ekofaollar, volontyorlar hamda mahalliy aholidan iborat saylovchilar ishtirok etdi.

Ommaviy tadbirda partiya raisi Abdushukur Hamzayev ishtirokchilarni partiyaning Saylovoldi dasturida ilgari surilgan g‘oyalari bilan tanishtirib, barchani joriy yilning 27-oktabr kuni bo‘lib o‘tadigan saylovlarda faol qatnashishga chaqirdi. Partiyaning Saylovoldi dasturida ilgari surilgan yurtimizda **“yashil” va raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish**, buning uchun **investitsiya fondini** tashkil etish, “yashil” innovatsiyalarni tatbiq qilishda **xususiy investorlarni qo‘llab-quvvatlash, davlat-xususiy sheriklikni va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish** hamda yirik sanoat korxonalarida “yashil” texnologiyalar joriy qilinishini jadallashtirish, **sanoatning “yashil” va kam uglerodli rivojlanishini** ta’minlash kabi qator muhim tashabbuslar saylovchilarga atroflicha tushuntirildi.

Tadbirda so‘zga chiqqan Ekopartiya faollari yaqinlashib kelayotgan saylovlarda yashil tabiat va musaffo havo, sog‘lom turmush istagida bo‘lgan barcha yurtdoshimizni O‘zbekiston Ekologik partiyasini va uning nomzodlarini qo‘llab-quvvatlashga chaqirdi.



**Shavkat HASANOV,**
**Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti rektori:**

— Ekopartiya bugun nafaqat sizu bizning ovozimiz, balki tabiatning ovozini ham baralla aytmoqda. Shuning uchun partiyamiz xalqimizning, farzandlarimizning qulay atrof-muhitga ega bo‘lish huquqlarini ro‘yobga chiqarishni bosh maqsad sifatida qo‘ymoqda.

Partiyamiz **2030-yilga qadar yirik shaharlarda yo‘lovchilarning velosipedda harakatlanish ulushini 20 foizga yetkazish**ni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Misol uchun, mana Registon maydoni atrofidagi maydonda skuter, minielektrobuslar harakatlanadi. Shovqinsiz, atrofga zararsiz, hamma uchun qulay. Shunday muhitga butun shahrimiz bo‘ylab erishsak qanday yaxshi?! O‘zbekiston Ekologik partiyasining maqsadi ham ana shunga qaratilgan.

**Toshkent shahri.** O‘zbekiston Ekologik partiyasining **shaharlarda bino va ko‘p kvartirali uylar qurilishini majburiy tartibda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish** mexanizmlarini qonunda aniq belgilash, **daraxtzorlar mavjud bo‘lgan yer maydonlari qurilish maqsadida realizatsiya qilinishini qonun bilan taqiqlash, 10 yoshdan katta daraxtlarni ko‘chirib o‘tkazishga butunlay cheklov qo‘yish** kabi takliflari poytaxtlik saylovchilar tomonidan qizg‘in qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Shahar hududidagi har bir daraxt taqdiri uchun qayg‘urish hamda yashil maydonlarni ko‘paytirish bugun jiddiy muammo bo‘lib turgan atmosfera ifloslanishiga qarshi kurashdagi eng maqbul chora ekani qayd etildi.

**Akmal RASULOV,**
**75-Toshkent shahar okrugidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod:**

— Shaharlarimizda yashil maydonlar va daraxtlar tobora kamayib ketayotgani, bu esa jamoatchilikning haqli e’tirozlariga sabab bo‘layotganini ko‘rib turibmiz. Partiyamizning **shaharlarda bino va ko‘p kvartirali uylar qurilishini majburiy tartibda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish** mexanizmlarini qonunda aniq belgilash taklifi, ayniqsa, Toshkent shahri uchun o‘ta muhim ahamiyatga ega bo‘lib, saylovchilarga manzur bo‘lmoqda.

Toshkent shahri uchun eng dolzarb ekologik muammolardan biri bu havo ifloslanishidir. Bugungi kunda poytaxtda **630 ming**dan ortiq transport vositalari bor. Unga qo‘shimcha ravishda bir kunda poytaxtga o‘rtacha **150 ming**dan **300 ming**gacha transport vositasi kirib keladi. Bu ham Toshkent shahrida transport vositalaridan atmosfera havosiga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar miqdorining ortishiga olib kelmoqda.

Bu muammoning samarali yechimi sifatida O‘zbekiston Ekologik partiyasi tomonidan **2035-yilgacha avtomobilsozlik sanoatini to‘liq elektromobil ishlab chiqarishga ixtisoslashtirish** tashabbusi ilgari surilmoqda. Bu tashabbus, atmosferaga tashlanayotgan chiqindilarni kamaytirish va shaharlardagi havo sifatini yaxshilashga sezilarli yordam beradi.

**O‘zbekiston Ekologik partiyasining saylovoldi tashabbuslarini, mamlakatimizning barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg‘un g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlashga chaqiramiz!**

**O‘zbekiston Ekologik partiyasi**
**Markaziy Kengashi matbuot xizmati.**

**O‘ZBEKISTON EKOLOGIK PARTIYASI VA UNING NOMZODLARIGA OVOZ BERING!**

# XALQ DEMOKRATIK PARTIYASI G‘OYA VA TASHABBUSLARI FAOL QO‘LLAB-QUVVATLANMOQDA

***Barchamiz yirik siyosiy jarayon — Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlarga saylovlar ostonasida turibmiz. Yangi O‘zbekistonda saylovlar ilk bor yangicha, aralash saylov tizimida bo‘lib o‘tadi.***

***Markaziy saylov komissiyasi saylov kampaniyasini e’lon qilishi bilan Xalq demokratik partiyasi jarayonga qizg‘in kirishdi. Mamlakatimizdagi barcha saylovda munosib qatnashib kelayotgan, 700 mingdan ortiq a’zolarga ega partiyamiz saylov kampaniyasining ilk kunlaridan saylovchilar bilan faol muloqotni boshladi.***

***Targ‘ibot tadbirlari respublikamizning barcha hududida, aholi keng qatlami orasida tizimli asosda olib borilmoqda.***

*Xalq demokratik partiyasi o‘zining saylov strategiyasi asosida uyma-uy yurib, 1 milliondan ortiq xonadonlarga kirib chiqishni, har bir saylovchiga partiya g‘oyalarini yetkazishni, ularning taklif-mulohazalarini olishni maqsad qilgan. Bu borada 3500 ga yaqin yigit-qiz va faollardan iborat volontyorlar guruhining ko‘magi katta bo‘lmoqda. Ular boshlang‘ich partiya tashkilotlari bilan birgalikda barcha hududda partiya Saylovoldi dasturi hamda deputatlikka nomzodlar haqidagi bosma materiallarni saylovchilarga yetkazyapti.*

*Partiya faollari hamda partiyadan ko‘rsatilgan nomzodlar hududlarda saylovchilar bilan yuzma-yuz uchrashuvlar, ochiq muloqotlar tashkil qilmoqda.*




## Qoraqalpog‘istondagi samimiy uchrashuv

Faol muloqotlardan biri Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ellikqal’a tumanida tashkil etildi. Nukus davlat pedagogika instituti filialidagi uchrashuvda talaba yoshlar bilan ochiq suhbat bo‘ldi. Partiyaning Saylovoldi dasturi hamda yoshlarga taalluqli takliflar haqida ma’lumot va fikrlar bildirildi. O‘zlariga daxldor tashabbuslar bilan tanishgan yoshlar Xalq demokratik partiyasini qo‘llab-quvvatlashini ma’lum qilishdi.

**Shamurat AMANBAYEV,**
**mustaqil izlanuvchi:**

*— Menga partiyaning suv resurslariga bog‘liq takliflari ma’qul keldi. Chunki suv — hayotiy masala. U bilan bog‘liq har qanday hayotiy taklifni ham, tashabbusni ham qo‘llab-quvvatlaymiz.*

*Suv resurslarini bozor tamoyillari asosida baholash, ularning iqtisodiy qiymatini aniqlash va suvdan foydalanish uchun to‘lovlarni joriy etish muhim. Bu suv resurslaridan samarali foydalanishni rag‘batlantiradi.*

*Shuningdek, suv xo‘jaligini moliyalashtirish uchun xalqaro grantlar hamda kreditlardan foydalanish zarur. Bu suv resurslarini muhofaza qilish va boshqarishni ta’minlaydi.*

## Bir maydonda bir maqsad sari

Ochiq osmon ostida o‘tgan Surxondaryodagi ommaviy tadbirda minglab saylovchilar yig‘ildi. Partiya rahbari va faollari tomonidan Saylovoldi dasturidan o‘rin olgan g‘oya va tashabbuslarning mazmun-mohiyati, ular nimaga xizmat qilishi saylovchilarga sodda va xalqchil tilda tushuntirib berildi. Bunday shakldagi ochiq muloqot orqali saylovchilar partiyaning eng muhim takliflari bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

**Robiya ABDURAHMONOVA,**
**o‘qituvchi:**

*— Uch nafar farzandim bor. Ochig‘ini aytsam, men bunday saylov bilan bog‘liq ommaviy tadbirda birinchi marta qatnashyapman. Partiya dasturidagi takliflarni eshitdik. Menga onalarning bola parvarishlashga sarflangan vaqtini to‘liq ish stajiga qo‘shish kerak, degan g‘oya juda yoqdi.*

*Bu taklifning amalga oshishi ko‘pchilik ayollar, onalarni behad mamnun qiladi. Chunki onalar farzandi uchun, kerak bo‘lsa, o‘zidan ham kechadi, umrini ularga bag‘ishlaydi. Kun kelib ularning davlat va jamiyatga foydasi tegsa, bu ota-ona mehnatining samarasi hisoblanadi.*

*Mazkur taklif onalarni e’zozlashga va onalikni rag‘batlantirishga hamda ularning fidokorligini qadrlashga xizmat qiladi, deb bilaman.*

**Zulxumor XIDIROVA,**
**xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi deputatligiga nomzod:**

*— Xalq demokratik partiyasining Saylovoldi dasturidagi asosiy g‘oya va tashabbuslar haqida saylovchilarga hayotiy misollar bilan ma’lumot berib kelinmoqda. Partiyamizning asosiy maqsadi jamiyatda ijtimoiy tenglik va adolatni hamda har bir insonning huquq va manfaatlarini ta’minlashdan iborat.*

*Saylovoldi dasturimizga yordamga muhtoj oilalarning farzandlari uchun davlat bog‘chalariga har oy to‘lanadigan ota-onalar to‘lovidan imtiyozlar berish taklifi kiritilgani, ayniqsa, onalarni mamnun etdi. Agar bunday oilalarga to‘lovda yengillik berilsa, birinchi navbatda, ular mehnat qilib, barqaror daromad topish, oilasi sharoitini izga solishda keng imkoniyatga ega bo‘ladi. Yana bir muhim jihati, bolalar nazoratsiz qolmaydi, ta’lim-tarbiyasi ham ko‘ngildagidek bo‘ladi.*

*Shuning uchun ham partiyamizning ayni taklifini jamiyatimiz uchun juda o‘rinli, hayotiy taklif, deb bilaman.*

## Elektorat vakillari bilan yonma-yon

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetidagi uchrashuv mazmunan yangicha yondashuv va keng qamrovda tashkil etildi. Xalq demokratik partiyasi yetakchilari va faollari poytaxtimizdagi maktabgacha ta’lim va umumta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilar, tarbiyachi-pedagoglar, murabbiylar bilan uchrashdi.

Ta’kidlanganidek, ta’lim — davlat va jamiyat taraqqiyotining muhim asosi. Bebaho boylik hisoblangan yosh avlod manfaatini ta’minlash uchun ushbu sohaga ustuvor e’tibor qaratish lozim. Zero, eng istiqbolli sarmoya ta’limga yo‘naltirilgan sarmoyadir.

Tadbir davomida partiya yoshlarning sifatli ta’lim olishi tarafdori ekani alohida qayd etildi. Yurtimizdagi har bir bola hayotda va jamiyatda o‘rin topadigan shaxs sifatida shakllanishi uchun ta’limning barcha bosqichida teng imkoniyatlar yaratilishi kerakligi aytildi.

O‘z navbatida, yig‘ilganlar partiyaning dasturidan o‘rin olgan taklif-tashabbuslarni qo‘llab-quvvatladi va o‘z fikrlarini bildirdi.

**Nargiza AHMEDOVA,**
**o‘qituvchi:**

*— Uchrashuvda Xalq demokratik partiyasining Saylovoldi dasturida ijtimoiy islohotlarni yangi bosqichga ko‘tarish, jumladan, ta’lim tizimida huquq va imkoniyatlar tengligini ta’minlash g‘oyasi haqida yetarlicha tasavvurga ega bo‘ldik. Misol uchun, menga “Salomatlikni mustahkamlovchi maktablar” ijtimoiy loyihasini keng amalga oshirish tashabbusi ma’qul keldi. Haqiqatan ham, bolalar doimiy tibbiy nazoratda bo‘lishi, sog‘lom ovqatlanishi ularning har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.*

*Farzandlarimizning zamonaviy talablarga javob beradigan o‘qish va o‘qitish muhitida ta’lim olishi, o‘z vaqtida tibbiy nazoratda bo‘lishi uchun ham salomatlikni mustahkamlovchi maktablar kerak.*

*Men partiyaning bu kabi xalqchil takliflarini qo‘llab-quvvatlayman.*

## Dasturimiz namanganliklarga ham manzur

Namangan shahridagi ommaviy tadbirda partiyamizning aholi barcha qatlami uchun birdek manfaatli bo‘lgan Saylovoldi dasturi ishtirokchilarga keng tanishtirildi. Partiyaning ijtimoiy soha bilan bog‘liq takliflari hayotiyligi, davlatning ijtimoiy islohotchi sifatidagi o‘rni va rolini saqlab qolishga urg‘u berayotgani namanganlik saylovchilar tomonidan faol qo‘llab-quvvatlandi.

**Salyyora XADJIMIRZAYEVA,**
**xalq deputatlari Namangan shahar Kengashi deputatligiga nomzod:**

*— Bilasiz, Namangan ulkan sanoat ishlab chiqarish quvvatiga ega. Shuning uchun partiya dasturidagi ayollar mehnatiga ixtisoslashtirilgan ishlab chiqaruvchi tashkilotlar qoshida oilaviy bog‘chalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali korxonada ishlovchi ayollarga sharoit yaratish taklifini to‘g‘ri, deb bilaman.*

*Yurtimizda ayollarga e’tibor ortib bormoqda, ularning bilim olishi, kasb egallashi rag‘batlantirilmoqda. Ayol kishining ham kasb-hunarli bo‘lib, mehnat qilishi oilaning moddiy farovonligiga hissa qo‘shadi, farzandlar kelajagi uchun yanada yaxshi sharoit ta’minlanadi.*

*Shu ma’noda, partiya ilgari surayotgan tashabbus bog‘cha yoshidagi farzandi bor ayollarga ham ishlash imkonini ko‘paytirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.*

*Qisqacha aytganda, partiyamiz va nomzodlarimiz saylovoldi targ‘ibot tadbirlarini respublikamizning barcha hududida ko‘tarinki ruhda o‘tkazmoqda.*

**“Ijtimoiy davlat uchun” shiori bilan saylovlarda ishtirok etayotgan O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasiga va uning nomzodlariga ovoz bering!**

**O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi**
**Axborot xizmati.**

**XALQ DEMOKRATIK PARTIYASI VA DEPUTATLIKKA NOMZODLARIGA OVOZ BERING!**

# SAYLOV HUQUQI VA MAS’ULIYAT

SAYLOV 2024
27-OKTABR
MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

1 Bundan tashqari, MSKning va saylov komissiyalarining o‘z vakolatlari doirasida qabul qiladigan qarorlari quyi saylov komissiyalari, barcha davlat organlari, siyosiy partiyalar, mehnat jamoalari va harbiy qismlar hamda boshqa jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning rahbarlari ijro etishi uchun majburiy hisoblanadi.

Qolaversa, saylov komissiyalari saylovga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bilan bog‘liq masalalar yuzasidan davlat organlariga hamda jamoat birlashmalariga, korxonalarga, muassasalarga, tashkilotlarga, mansabdor shaxslarga murojaat qilish huquqiga ega, ular qo‘yilgan masalani ko‘pi bilan uch kunlik muddatda ko‘rib chiqishi va saylov komissiyasiga javob qaytarishi shartligi belgilangan.

Shundan kelib chiqib, mansabdor shaxslar MSKning, saylov komissiyalarining qarorlarini belgilangan muddatda ijro etmasligi, ularning murojaatlarini ko‘rib chiqishni g‘ayrihuquqiy ravishda rad etishi yoki ularni ko‘rib chiqish muddatlarini uzrli sabablarsiz buzishi *MJtK 51[3]-moddasi bo‘yicha javobgarlikka olib keladi.*

### Nomzod, ishonchli vakil, kuzatuvchi, partiya vakolatli vakili huquqlari

Qonunchilik palatasi yoki mahalliy Kengashlar deputatligiga saylanish uchun saylovlarda belgilangan tartibda siyosiy partiyalar tomonidan ilgari surilgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari nomzod deb topiladi hamda ular MSK va tegishli saylov komissiyalari tomonidan ro‘yxatga olinib, ularga belgilangan shakldagi guvohnoma rasmiylashtiriladi.

Saylov kodeksining bir qator moddalarida, shuningdek, MSKning 2019-yil 19-sentabrdagi hamda 5-oktabrdagi qarorida nomzod, ishonchli vakil, kuzatuvchi yoki siyosiy partiya vakolatli vakillari huquqlari mustahkamlab qo‘yilgan. Unga ko‘ra *ishonchli vakil* nomzodga saylov kampaniyasini o‘tkazishda yordam beradigan, nomzod saylanishi uchun tashviqot olib boradigan, davlat organlari va jamoat birlashmalari, saylov komissiyalari bilan bo‘ladigan munosabatlarda nomzodning manfaatlarini ifodalaydi.

Siyosiy partiyalardan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan, shuningdek, boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlardan *kuzatuvchilar* o‘z faoliyatini komissiyalar tomonidan berilgan mandatlar asosida amalga oshiradi. Bunda kuzatuvchining maqsadi saylovga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishga doir barcha tadbirlarda, shu jumladan, saylov kuni ovoz berish va ovozlarni sanab chiqish jarayonlarida saylov qonunchiligiga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdan iborat bo‘ladi.

Siyosiy partiya *vakolatli vakili* saylov komissiyasining majlislarida, hujjatlarni topshirish, imzo varaqalari to‘g‘ri to‘ldirilganini tekshirish va saylov uchastkasida ovozlarni sanab chiqishda partiyalar nomidan ishtirok etadi.

Agarda mansabdor shaxslar tomonidan nomzodning, ishonchli vakilning, kuzatuvchining yoki siyosiy partiya vakolatli vakilining huquqlari bevosita yoki bilvosita buzilsa, ular *MJtK 51[4]-moddasiga asosan javobgarlikka tortiladi.* Masalan, bunday qilmishlar mansabdor shaxslar tomonidan kuzatuvchining huquqlarini buzish uni ovoz beriladigan joyga qo‘ymaslik, unga zarur ma’lumotlarni, hujjatlarni taqdim etmaslik va boshqa shu kabilarda ifodalanishi mumkin.

### Saylovoldi tashviqoti olib borish shartlari va tartibi

Saylovoldi tashviqotini olib borish shartlari va tartibi Saylov kodeksi va MSK qarorlarida belgilangan. Saylovoldi tashviqoti — saylov kampaniyasi davrida amalga oshiriladigan va saylovchilarni deputatlikka nomzodni yoki siyosiy partiyani yoqlab ovoz berishga undashga qaratilgan faoliyat hisoblanadi.

Saylovoldi tashviqoti deputatlikka nomzodlarni va siyosiy partiyalar tomonidan ko‘rsatilgan nomzodlar ro‘yxatini belgilangan tartibda ro‘yxatga olish uchun belgilangan oxirgi kunning ertasidan boshlanadi va ovoz berish boshlanishidan bir kun oldin tugatiladi. Saylov kuni va ovoz berishga bir kun qolganida tashviqot olib borilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Tashviqotni saylovchilarga bepul yoki imtiyozli shartlarda tovarlar berish, xizmatlar ko‘rsatish (axborot xizmatlaridan tashqari), shuningdek pul mablag‘lari to‘lash bilan birga olib borish taqiqlanadi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlari, Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilari, Davlat xavfsizlik xizmati, boshqa harbiylashtirilgan bo‘linmalar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, sudyalar, saylov komissiyalari a’zolari, diniy tashkilotlar professional xizmatchilari saylovoldi tashviqotini olib borishlari mumkin emas.

Bundan tashqari, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mansabdor shaxslari o‘z mansab va xizmat mavqeidan saylovoldi tashviqoti vaqtida har qanday siyosiy partiya yoki nomzod foydasiga yoxud unga qarshi foydalanishi taqiqlanadi.

Nomzod, ishonchli vakil, siyosiy partiya vakili va mansabdor shaxslar tomonidan saylovoldi tashviqotining ushbu holatlari hamda boshqa shartlari va tartiblari buzilgan taqdirda *MJtK 51[5]-moddasiga asosan* javobgarlik kelib chiqadi. Masalan, saylovchilarni haq evaziga og‘dirib olish, tashviqot materiallarini mamlakat hududidan tashqarida tayyorlash, ovoz berish xonalariga bosma tashviqot materiallarini joylashtirish va boshqalar shunday shartlar va tartiblarni buzish sifatida baholanishi mumkin.

### Teng sharoit va sog‘lom raqobat muhiti

Sog‘lom raqobat muhitida o‘tadigan saylovlarda siyosiy partiyalar o‘rtasida har bir ovoz uchun kurash kechadi, sog‘lom raqobat bo‘ladi. Shu jihatdan, qonunchilikda saylovoldi tashviqotini olib borishda noto‘g‘ri axborot tarqatish, shaxsga doir ma’lumotlar maxfiyligini buzish, nomzodlar sha’ni, qadr-qimmatiga putur yetkazadigan ma’lumotlarni, shuningdek, ularning huquq va qonuniy manfaatlariga ziyon yetkazuvchi har qanday yolg‘on (chalg‘itadigan yoki adashtirib yuboradigan darajadagi) materiallarni tarqatish taqiqlangan.

> *“Saylov kodeksiga muvofiq saylov komissiyalari va ularning a’zolari o`z faoliyatini har qanday davlat organlaridan, jamoat birlashmalaridan va mansabdor shaxslardan mustaqil holda amalga oshiradi. Saylov komissiyalari faoliyatiga aralashishga yo`l qo`yilmaydi.”*

Shuning uchun har qanday fuqaro yoki mansabdor shaxslarning saylov natijalariga ta’sir ko‘rsatish maqsadida nomzod yoki siyosiy partiya to‘g‘risida ataylab yolg‘on ma’lumotlar e’lon qilishi yoki boshqa usullar orqali tarqatishi *MJtK 51[6]-moddasi bo‘yicha javobgarlikka olib keladi. Yolg‘on ma’lumotlar deganda* haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan ma’lumotlar, ularni e’lon qilish, bunday ma’lumotlarni bir yoki bir necha shaxslarga tarqatgan holda ma’lum qilish tushuniladi.

Bundan tashqari, saylovga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish jarayonida binolarga, inshootlarga yoki boshqa joylarga joylashtirilgan axborot hamda tashviqot materiallarini qasddan yo‘q qilish yoki ularga shikast yetkazish *MJtK 51[7]-moddasiga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi*. Materiallarni *qasddan yo‘q qilish deganda* undan foydalanib bo‘lmaydigan darajada zarar berish tushunilsa, *qasddan shikast yetkazish deganda* ularni qayta tiklash imkoniyati mavjud bo‘lgan holda qisman yaroqsiz holatga keltirish anglanadi.

### Moliyalashtirish manbalari va sarflanishi

O‘zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi, Budjet kodeksi, “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida”gi Qonun va MSKning 2019-yil 25-oktabrdagi qarori bilan tasdiqlangan yo‘riqnomada saylovlarga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlarni moliyalashtirish va ulardan foydalanish tartibi belgilangan. Unga binoan saylovlarga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘i hisobidan amalga oshiriladi.

Siyosiy partiyalarning saylovda ishtirok etishini moliyalashtirish uchun ajratilgan davlat mablag‘lari tashviqot olib borishga, nomzodlarning ishonchli vakillari va tashviqot uchun jalb qilinadigan boshqa faollar ishini tashkil etishga, saylov kampaniyasini o‘tkazishga doir umumpartiyaviy tadbirlarga sarflanadi.

Fuqarolar tomonidan taqdim etilgan homiylik mablag‘laridan siyosiy partiyalar va nomzodlarning saylovoldi tashviqotini moliyalashtirish uchun foydalanish mumkin emas. Siyosiy partiyalar, boshqa jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolarning saylovni o‘tkazish bilan bog‘liq tadbirlar uchun taqdim etiladigan *homiylik mablag‘lari* MSKning shaxsiy g‘azna hisobvarag‘iga kirim qilinadi hamda ushbu mablag‘lar MSKning qarori asosida saylovga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bilan bog‘liq tadbirlarga sarflanadi va hisobi alohida yuritiladi. Bunday xayriya mablag‘lari siyosiy partiyalar, shu jumladan, muayyan siyosiy partiyadan ko‘rsatilgan nomzodning saylovoldi tashviqotini moliyalashtirish uchun MSKning shaxsiy g‘azna hisobvarag‘iga maqsadli kelib tushgan bo‘lsa, ushbu mablag‘lar *uch kunlik* muddatda xayriya subyektiga qaytarib beriladi.

Shuningdek, chet davlatlar, ular jismoniy va yuridik shaxslarining, xalqaro tashkilotlarning mablag‘lari hisobidan saylovni moliyalashtirish hamda nomzodlar va siyosiy partiyalarni moddiy jihatdan boshqacha tarzda qo‘llab-quvvatlash taqiqlanadi. Agar fuqarolar va mansabdor shaxslar tomonidan saylovni moliyalashtirish bo‘yicha yuqorida keltirilgan taqiqlar yoki uni moliyalashtirishning belgilangan tartibi buzilsa, ular *MJtK 51[8]-moddasiga asosan javobgarlikka tortiladi.*

Agarda siyosiy partiyalarning mansabdor shaxslari yoki boshqa vakolatli shaxslari tomonidan saylovda ishtirok etish uchun ajratilgan davlat mablag‘lari bo‘yicha MSKga oraliq yoki yakuniy hisobotlarni taqdim etmasa yoki o‘z vaqtida taqdim etmasa yoxud hisobotda bila turib noto‘g‘ri ma’lumotlarni taqdim etsa, bunday qilmishlar uchun MJtK 51[11]-moddasi asosida javobgarlik belgilanadi.

### Natijalarni e’lon qilish qoidasini buzish va “oilaviy” ovoz berish taqiqlanadi

Saylov kodeksining 97-moddasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov yakunlariga ko‘ra MSKning qarori saylovdan keyin *o‘n kundan* kechiktirmay qabul qilinadi, MSKning rasmiy veb-saytida va boshqa manbalarda e’lon qilinadi. Mahalliy Kengashga o‘tkazilgan saylov yakunlari to‘g‘risidagi qaror tegishli saylov komissiyasi tomonidan saylovdan keyin *o‘n kundan* kechiktirmay qabul qilinadi va matbuotda beriladi, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida chop etiladi.

Qonunchiligimizda saylov kuni va ovoz berish boshlanishidan bir kun oldin jamoatchilik fikri so‘rovlari natijalarini, saylov natijalari prognozlarini, o‘tkazilayotgan saylov bilan bog‘liq boshqa tadqiqotlarni e’lon qilish, jumladan, axborot tarmoqlariga, shuningdek, Internet jahon axborot tarmog‘iga joylashtirish taqiqlanadi. Mansabdor shaxslar tomonidan bu kabi taqiqlarning buzilishi M*JtK 51[9]-moddasiga binoan javobgarlikka sabab bo‘ladi.*

Aksariyat fuqarolarimiz saylovlarda “oilaviy” ovoz berishni odatiy holat deb hisoblashadi. Biroq Saylov kodeksiga binoan, saylovda ishtirok etuvchi har bir fuqaro bir ovozga ega bo‘ladi va bu bilan fuqarolarning teng saylov huquqi kafolatlanadi. Shu jihatdan saylovlarda “oilaviy” ovoz berish va unga yo‘l qo‘yib berish taqiqlanadi. Agarda saylov komissiyasi a’zosi tomonidan fuqarolarga bir necha marta yoki boshqa shaxslar nomidan ovoz berish uchun saylov byulletenlari berilsa, bunday qilmishlar uchun *MJtK 51[10]-moddasi asosida javobgarlik belgilanadi.*

### Jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaruvchi holatlar

Jinoyat kodeksining 146-moddasida saylovlarni tashkil qilish, ularni o‘tkazish vaqtida mansabdor shaxslar, siyosiy partiyalar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari vakillari, saylov komissiyalari a’zolari tomonidan ovoz berishning yashirinligini buzish, saylov hujjatlarini qalbakilashtirish, saylov yoki imzo varaqalariga soxta yozuvlar kiritish, berilgan ovozlarni ataylab noto‘g‘ri hisoblaganlik uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan.

Saylovda erkin va yashirin ovoz beriladi, saylovchilarning xohish-irodasini nazorat qilishga yo‘l qo‘yilmaydi. Yashirin ovoz berish saylovchi xohish-irodasi ustidan har qanday tarzda nazorat qilish imkoniyatini istisno etadigan tegishli sharoitlarni yaratish orqali ta’minlanadi.

*Ovoz berish yashirinligini buzish deganda* saylovchining yashirin ovoz berishni nazarda tutuvchi xohish-irodasi ustidan har qanday tarzda nazorat qilish tushuniladi.

*Saylov hujjatlarini qalbakilashtirish deganda* ularga haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan noto‘g‘ri ma’lumot kiritish, haqiqiy hujjat mazmunini o‘zgartirish, matnga o‘zgartirish va tuzatishlar kiritish, noto‘g‘ri mazmunga ega bo‘lgan yangi hujjat tayyorlash nazarda tutiladi.

*Soxta ma’lumot kiritish deganda* saylov jarayoniga taalluqli hujjatlarga haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan ma’lumot kiritilishiga aytiladi.

*Berilgan ovozlarni ataylab noto‘g‘ri sanash* saylov natijasi haqidagi ma’lumotlarni hisoblash jarayonida u yoki bu nomzod foydasiga haqiqatda berilgan ovozlarni noto‘g‘ri hisoblashda namoyon bo‘ladi.

Saylash va saylanish fuqarolarning eng muhim siyosiy huquqlaridan bo‘lib, ushbu huquqlar jinoyat qonunchiligi bilan ham muhofaza qilinadi. Shu bois Jinoyat kodeksi 147-moddasida fuqarolarning saylash yoki saylanish, saylovoldi targ‘iboti olib borish huquqlarini, deputatlikka nomzod shaxs ishonchli vakillari o‘z vakolatlarini erkin amalga oshirishiga zo‘rlik ishlatish, qo‘rqitish, aldash yoki og‘dirib olish yo‘li bilan to‘sqinlik qilish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Saylovchilar qayerda bo‘lishlaridan qat’i nazar, ularga saylovlarda bevosita qatnashish huquqi kafolatlanadi. Salomatligining holati yoki boshqa sabablarga ko‘ra ovoz berish binosiga kela olmaydigan saylovchilar saylov komissiyasiga iltimos bilan murojaat etish huquqiga ega, komissiya ovoz berishni ana shu saylovchilar turgan joyda tashkil etishi shart.

*Saylovoldi targ‘iboti olib borishga to‘sqinlik qilish deganda* nomzodlarning qonunda belgilangan tartibda o‘zining kelgusi faoliyat dasturi mohiyatini tushuntirish yuzasidan saylovchilarning yig‘ilishlarini va saylovchilar bilan uchrashuvlar o‘tkazishni tashkil etishga qarshilik qilish tushuniladi.

*Nomzodlar ishonchli vakillarining o‘z vakolatlarini erkin amalga oshirishlariga to‘sqinlik qilish deganda* ishonchli vakillarning nomzodlarga saylov kampaniyasini o‘tkazishda yordam berish, nomzodlar saylanishi uchun targ‘ibot olib borish, davlat organlari va jamoat birlashmalari organlari, saylovchilar bilan o‘zaro munosabatlarda, saylov komissiyalarida nomzodning manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha o‘z vakolatlarini olib borishiga qarshilik qilish yoki cheklashni tushunamiz.

Keltirib o‘tilganidek, saylov qonunchiligini buzish bilan bog‘liq huquqbuzarliklar va jinoyatlar uchun javobgarlik qat’iy belgilab qo‘yilgan bo‘lib, bu bo‘lajak saylovlarning demokratik tamoyillarga to‘la mos ravishda o‘tkazilishiga huquqiy zamin yaratadi.

**Abrorjon OTAJONOV,**
**Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori.**




Сирожиддин ВОҲИДОВ олган суратлар.

# DAVLAT TILI BARCHA FUQAROLARNI YAGONA OILA SIFATIDA BIRLASHTIRADI

**Isajon SULTON,**
**O‘zbekiston xalq yozuvchisi:**

— O‘zbek tili — adolat tili, muhabbat tili, she’r tili, his-tuyg‘ular tili, ko‘ngil tilidir. Uning go‘zalliklari, sirli ma’volari qoshida bosh egmay, uni sevmay, ardoqlamay boshqa iloj yo‘q. Aziz va mukarram tilimiz haqida so‘z yuritar ekanmiz, ma’rifatparvar jadid bobomiz Abdulla Avloniyning ushbu gapi ayni haqiqat ekaniga amin bo‘lamiz: “Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgan oyinai hayoti uning tili va adabiyotidur. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur”.

Shukrki, jonajon diyorimizda millat ruhini yo‘qotmaslik uchun dadil qadamlar tashlanmoqda. Tilni asrab-avaylash nafaqat tilshunos ziyolilar, balki har bir insonning qalb amri, ajdodlardan meros burchi bo‘lishi ta’kidlanyapti. Prezidentimiz boshchiligidagi til siyosatiga doir tashabbuslar mazmun-mohiyatiga nazar solsangiz, bu yo‘lda amalga oshirilayotgan ishlar kundan-kunga takomillashib borayotganini sezasiz.

Davlat tiliga hurmatni nima belgilaydi? Unda ravon, chiroyli gapirish, fikrini emin-erkin bildirish, to‘g‘ri yozish, albatta. O‘zbek xalqi azal-azaldan so‘zni qadrlaydigan, adabiyotga mehr qo‘ygan, tili uchun kurasha oladigan xalq. Buni tarix zarvaraqlaridan ham o‘qib, uqib olish qiyin emas.

Ota-bobolarimiz bejiz “Tilini asragan el boy bo‘ladi, uni yo‘qotgan el esa yo‘lidan, o‘zligidan adashadi”, deyishmagan. Demak, har qanday davlat va jamiyatning rivoji, gurkirab yashnashi, millat o‘laroq yashashi til atalmish muazzam boylikni asrash bilan bog‘liq. O‘zbek degan nom, millat asrlar oshishini istasak, albatta, tilga munosabatimiz, hurmatimiz joyida bo‘lishi shart va zarur.

**Eulogio KRESPIN,**
**investor (AQSH):**

— Kuni kecha til bayrami tadbirida qatnashib, O‘zbekistonda davlat tiliga bo‘lgan e’tibor va mehr naqadar yuksakligiga guvoh bo‘ldim. Bayram juda ko‘tarinki ruhda, katta shodiyona bilan nishonlandi. Tadbir dasturidan o‘rin olgan she’ru qo‘shiqlarda, sahna ko‘rinishlarida o‘zbek tilining bor jozibasi, latofati aks etdi. Odamlarning yuz-ko‘zida sevinch, dilida muhabbat. Buni ko‘rib, dilim hayrat va havasga to‘ldi. Axir barcha davlatda ham til bayrami nishonlanavermaydi, hammaning ham tilga munosabati bu darajada emas.

Mamlakatingizga kelganimga 1 yildan oshdi, hozirda o‘zbekchani yaxshi tushunaman va bemalol gaplasha olaman. Ochig‘i, yurtingizga ilk kelganimda tilni bilmasam-da bu yerning odamlari samimiyligi, mehmondo‘st va ochiqko‘ngilligini his qilganman. Ish faoliyatimni yanada yaxshilash, biznes hamkorlarim va do‘stlarim bilan bemalol muloqot qila olishim uchun, albatta, o‘zbek tilini yaxshi bilishim talab etilardi. Keyinchalik bu istak qat’iy maqsadga aylandi, bugun esa mana qarshingizda talaffuzim boshqacha bo‘lishiga qaramay ravon gapirib turibman.

Do‘stlarimga “O‘zbek tili o‘ziga xos va go‘zal til, bunga shubhangiz bo‘lsa, o‘zbek milliy qo‘shiqlari, laparlariga quloq tuting, xalq zakosi yaratgan maqollarni o‘qing. Ular o‘zining g‘oyaviy-fikriy teranligi, mazmunan pishiqligi va ohangdorligi bilan ko‘ngilga xush yoqadi, odamni fikr yuritishga undaydi”, deyman. Ularning bu go‘zallikdan bahra olishini istayman.

Hozir oila a’zolarimni ham o‘zbek tilini o‘rganishga undamoqdaman. Rafiqamning ham bu tilni o‘rganishga ishtiyoqi oshgan. Shuningdek, o‘g‘limiz ham o‘zbekchani mukammal o‘rganmoqda, hatto she’rlar yodlagan.

O‘zbek tili kelajakda yanada rivoj topib, boyib, o‘z qadru qiymatini yo‘qotmay yashashiga ishonaman. Zero, bunga hozirdan xayrli ishlar ko‘rilmoqda.

**Ma’suma MO‘MINOVA,**
**filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori:**

— Ayni kunlarda xonadonlarimizu mahallamiz, qalblarimiz O‘zbek tili bayrami va ona tilimizga davlat tili maqomi berilganining 35 yillik shodiyonasi sevinchi, shukuhi bilan to‘lgan. Bu bayramning nufuzi yildan-yilga oshib, o‘zgacha ma’no-mazmun bilan boyib borayotgani kishini behad xursand qiladi. Bu yo‘lda, ayniqsa, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan til siyosati va davlatimiz rahbarining g‘amxo‘rligini alohida ta’kidlash zarur.

Kuni kecha ham Prezidentimizning bayram munosabati bilan xalqimizga yo‘llagan tabrigini ko‘tarinki ruhda kutib oldik. Unda davlat tili ravnaqini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlar qayd qilinishi barobarida o‘zbek tilining beqiyos imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, uning jahon miqyosida nufuzi va jozibadorligini oshirish uchun hali oldimizda ko‘plab vazifalar turganiga urg‘u berildi. Avvalo, yuksak taraqqiy etgan demokratik davlatlarda bo‘lgani kabi davlat tili butun jamiyatni, tili va millatidan qat’i nazar, barcha fuqarolarni yagona xalq sifatida birlashtirishga xizmat qilishi zarurligi ta’kidlandi.

Mamlakatimizda qonunga hurmat va itoat muhitini ta’minlash, jumladan, “Davlat tili haqida”gi Qonunni hayotimizga izchil tatbiq qilishda barchamiz yuksak madaniyat va o‘zaro bir-birini anglash tuyg‘usini namoyon etishimiz lozimligi, bu borada barcha ta’lim muassasalarida o‘zbek tili va adabiyoti fanlarini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish orqali ta’lim sifatini oshirishga erishish muhim ahamiyatga egaligi aytildi.

Bu butun xalqimizga, ayniqsa, biz, ta’lim sohasi vakillari zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Bundan keyin ham yanada katta shijoat va g‘ayrat bilan yosh avlod kamolotiga, ona tilimiz rivoji va targ‘ibotiga hissa qo‘shaveramiz.

**Rahmatjon BOBOJONOV**
**(“Xalq so‘zi”) yozib oldi.**

Гулистон давлат университети жамоаси университет доценти **Абубакр МУХАМЕТОВнинг** вафоти муносабати билан марҳумнинг оила аъзолари ва яқинларига чуқур таъзия изҳор этади.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-942. 12 918 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir Z. Xudoyshukurov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni — 22.00 Topshirildi — 23.55 1 2 3 4 5 6